



**SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH VA  
TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIMLARNI FIKIRI  
TAHLILI**

*Suyunov Axmadjon Xujamurodovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Magistranti*

***Annotatsiya:** Maqolada soliq yukining ta'sirini doimiy ravishda dolzarb tadqiqot mavzui hisoblanadi. Soliq yukining iqtisodiy faoliyatga ta'siri, soliq yuki og'irligini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi muammolari, soliq yuki og'irligini boshqa bir sub'ektlarning zimmasiga o'tkazilishi, soliq yukini soliq to'lovchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga ta'siri kabi yoritilgap. Bundan tashqari, olimlarni fikiri o'rganilib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.*

***Kalit so'zlar:** soliq yuki, yer, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, byudjet, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.*

**Kirish:** So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda va etakchi xalqaro moliya inctitutlari, ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish macalalari, Hususan, soliq yukini pasaytirish, mexanizmlarini takomillashtirish hamda soliqlarning o'z muddatida to'lanmaganligi uchun penyalar hisoblash mexanizmi va miqdorining optimal yo'llarini ishlab chiqish yuzacidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda soliq yukining ta'sirini doimiy ravishda dolzarb tadqiqot mavzui hisoblanadi. Olimlarning diqqat-e'tiborini asosan soliq yukining iqtisodiy faoliyatga ta'siri, soliq yuki og'irligini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi muammolari, soliq yuki og'irligini boshqa bir sub'ektlarning

zimmasiga o'tkazilishi, soliq yukini soliq to'lovchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga ta'siri kabi masalalar nisbatan ko'proq qiziqtirgan.

Soliq yuki muammosi bilan olimlar uzoq yillardan beri shug'ullanib kelishganiga qaramay soliq yukining eng optimal darajasini aniq baholay olish masalasi hamon o'z yechimini topmagan. Holbuki, amal qiluvchi soliq yukining haddan tashqari oshib ketishi oqibat natijada tadbirkorlik faoliyatiga hamda iqtisodiyotning rivojlanishga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi yaxshi ma'lum. Har bir jamiyatda soliq munosabatlarini tashkil etish hamda boshqarish masalalariga ob'ektiv nuqtai nazardan qarash shundan dalolat beradiki, soliq yukining iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish hamma vaqt olimlarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan muammolardan biri sanalgan.

Soliq yukining iqtisodiy sub'ektlarga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy jihatdan izohlash borasida eng ko'p tarqalgani va mashhur bo'lgani bu jamiyat a'zolarining davlatning turli xil xizmatlari bilan o'zaro almashishi haqidagi g'oyadir. Ilm-fanda atomistik nazariya deb nom olgan bu ta'limot XVII-XVIII asrlarda Fransiyada rivojlantirilgan. Atomistik nazariyaning asoschilari S.Voban, Sh.Monteske va boshqalar bo'lishgan. Mazkur ta'limotning negizida yotgan ustuvor g'oyaga muvofiq davlat fuqarolarning tinch hayot kechirishi uchun zarur shartsharoitlarni yaratib bergani bois jamiyat a'zolari davlatga o'zining daromadlaridan ma'lum qismini berishi lozimligi e'tirof etiladi. O'sha vaqtlardayoq nazariy ta'limotning asoschilaridan biri Sh. Monteske amal qiluvchi soliq yukini imkon qadar optimallashtirish kerakligini ta'kidlaydi. Qadimda yashagan olimning fikricha, "fuqarolar o'zining daromadidan ma'lum qismini davlat ehtiyojlarini qondirish uchun topshirishi lozim bo'lsa, u holda, davlat foydasiga undiriladigan hamda keyinchalik soliq to'lovchining o'zida qoladigan daromad bo'laklari orasida shunday mutanosiblik proporsiyasi topilishi lozimki, toki, zimmasidagi soliq yukidan xalos bo'lgan fuqarolar kelgusida o'ziga tegishli bo'lmish daromadlaridan erkin foydalana olishi uchun zarur darajada kafolatlangan sharoitlarga ega bo'lsin".

Atomistik nazariyani keyinchalik yanada rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlardan biri bu Djeyms Mill edi. Angliyalik ushbu mutafakkir fikriga qaraganda,

jamiyatda yashaydigan har bir inson davlat tomonidan unga tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilgani bois o'zining daromadidan ma'lum qismini davlat byudjetiga to'lashi shart. Dj. Mill daromad solig'ini undirish vaqtida inson degan nomga munosib hayot kechira olish uchun zarur bo'ladigan soliqqa tortilmaydigan minimal daromad miqdorini joriy etish haqidagi g'oyani ilgari suradi. Progressiv soliq olinishi xususida fikr yuritir ekan, Djejms Mill shunday yozadi: "Nisbatan kattaroq miqdordagi daromadlardan kattaroq hajmlarda soliq undirilishi adolatsizlik tantanasiga olib keladi, chunki bunday vaziyatda davlat insonni boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan ko'proq mehnat qilishga, topgan daromadlarini tejab-tergashga, jonbozlik va tadbirkorlik ko'rsatishga moyil bo'lgani uchun jazolaydi. Adolatli va oqilona tuzilgan qonunchilik bunga yo'l qo'ymasligi lozim".

XVIII asrlarda iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlardan undiriladigan soliqlarni sug'urta mukofotlari jumlasiga teglashtirish haqidagi g'oyalar paydo bo'la boshladi. XIX asrda A. Ter, E. de Jirarden va boshqa fransuz olimlari mazkur g'oyalarni nazariy jihatdan asoslab yanada boyitishga katta hissa qo'shdilar. Soliqlarni sug'urta mukofotlari jumlasiga teglashtirish haqidagi g'oyalarni rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlarning hisoblashicha, fuqarolar ijtimoiy hayotda ro'y berishi mumkin bo'ladigan turli xildagi risklar va favqulotda hodisalardan davlat organlari uni himoyalashi uchun albatta soliq to'lashi kerak. Bunday ob'ektiv zaruriyatdan kelib chiqib belgilanadigan sug'urta to'lovlari (badal)ning har miqdori bir shaxsning oladigan yalpi daromadi yoki mol-mulki hajmiga qarab tayinlanadi. Shu o'rinda e'tiborimizni masalaning muhim bir jihatiga qaratmoqchimiz, ma'lumki, soliqlar davlat tomonidan belgilanadigan, ayni paytda muqobil ekvivalenti bo'lmagan majburiy to'lovlar jumlasiga kiritiladi.

Bunda o'zining fuqarolik burchini bajarib keladigan har bir shaxs tomonidan davlat byudjetiga o'kaziladigan muayyan mablag'lar qiymati bilan kelgusida ushbu fuqaro soliq sifatida to'langan mablag'lari evaziga davlatdan olishi mumkin bo'ladigan foyda qiymati va muayyan ko'rinishi (shakli) o'rtasidagi uzviy aloqadorlik mavjudligini aniq ifodalab bo'lmaydi. Shu bois, g'oyalar mutlaqo

nazariy ahamiyatga molik bo'lib qoladi, negaki ular davlatning funksional faoliyati bajarilishi uchun haqiqatdan ham soliq to'lovlari joriy etilishi lozimligini ilmiy jihatdan asoslab berishga yordam qiladi, ammo bunday g'oyalarga tayanib sof amaliy ahamiyatga molik bo'lgan soliq yukining optimal o'lchamlarini qanday aniqlash mumkinligi xususidagi muammoning yechimini topishning iloji yo'q.

Davlat o'zining funksional vazifalarini bajara olishi uchun tegishlicha mablag'lar talab etilishi hamda ularni qisman soliqlar undirish orqali o'zlashtirish mumkinligi haqidagi klassik nazariy g'oyalarga asos solgan va kelgusida ularni rivojlantirgan olimlar haqida gapirilsa, biz albatta A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, T.Shuls, A.Pigu va boshqa shu kabi o'z davrining mutafakkirlarini tilga olmasdan ilojimiz yo'q. A.Smitni to'liq asos bilan soliq munosabatlarining ilmiy negizini ishlab chiqqan olim deb e'tirof etishimiz mumkin. Olim o'zining "Turli xil xalqlarning boyluk orttirishi sabablari va uning asl mohiyatini o'rganish" deb nomlangan ilmiy asarida soliqlarga ta'rif berar ekan shunday yozadi: "soliq bu mutlaq qonuniy asosda davlat tomonidan fuqarolar zimmasiga yuklatiladigan alohida turdagi majburiyatlardan biriki, u umumiy ijtimoiy ehtiyojlar yo'lida ishlatiladi. Shu boisdan ham davlat to'lanadigan soliqlarning aniq miqdorini hamda ularni undirish tartiblarini qat'iy ravishda belgilab beradi". A.Smitning fikriga qaraganda, soliqlar undirilishi tufayli davlat g'aznasiga kelib tushadigan mablag'lardan noratsional, besamara foydalanilsa, ob'ektiv ravishda kapital jamg'aralishi ko'lamlari, milliy daromad hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sish sur'atlari nisbatan past darajada qoladi. Aynan shu sabab tufayli A.Smit kelgusida ijtimoiy ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan resurslarning bir qismini majburiy to'lov tariqasida tortib olinishiga olib keladigan ayrim turdagi soliqlarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan. A.Smit iqtisodiyotni rivojlantirish va kapital jamg'arilishiga ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan olib qarab turli xildagi soliqlarga baho beradi. Olimning fikricha, turli xildagi tovarlarning narxlariga qo'shiladigan bilvosita soliqlar funksional jihatdan nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini va sotuvga chiqarilgan mahsulotlarning narxlarini oshishiga olib keladi, balki savdo operatsiyalari hamda iste'molning umumiy hajmini keskin

kamaytirilishiga sabab ham bo'ladi. Ish haqidan undiriladigan soliqlar esa pirovard natijada fuqarolarning xarid qilish layoqatini, bozorlardagi tovar va turli xildagi xizmatlarga nisbatan talab darajasini anchagina pasaytiradi. Talab darajasining pasayishi ob'ektiv ravishda milliy iqtisodiyot hamda moliya tizimlarining holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Smitning fikriga qaraganda, bu xildagi oqibatlariga sabab bo'luvchi soliqlar pirovardida "mamlakat aholisining o'z tug'ma layoqatlarini mehnat sohasida ijobiy qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi..., shu bilan birga, ayni xildagi soliqlarni real tarzda to'lash imkoniyatlarini beradigan manbalarni jiddiy kamaytirishi, hattoki, butunlay yo'q qilib yuborishi mumkin..." A.Smitning shogirdi va kelgusida uning ishini davom ettirgan olimlardan yana biri bu D.Rikardo edi. D.Rikardoning fikricha, har qanday turdagi soliqlar oqibat natijada majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun asosiy manba bo'ladigan kapitalga yoki daromadlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, kapitalga nisbatan tatbiq etiladigan soliqlar pirovardida ishlab chiqarish unumdorligini oshirish uchun baza bo'ladigan fondlarning hajmini qisqartirilishiga, daromad solig'i esa kapital jamg'arilishiga va tabiiyki, soliq to'lovchilarning iste'mol qilish layoqati miqyoslariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birlamchi turmush ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan tovarlarga nisbatan joriy etiladigan bilvosita soliqlar mahsulot narxini oshirilishiga sabab bo'ladi, bu hol esa o'z navbatida aholining turmush darajasini, ishlab chiqarish unumdorligini va tabiiyki, YaIM ko'lamini, davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'lar salmog'ini pasaytirib yuboradi. Olimning ta'kidlashicha, oqibat natijada ishlab chiqarilgan tovarlarning narxlarini oshirilishiga va aholining real daromadlari ko'lamini pasayishiga olib keladigan har qanday soliqlar keyinchalik ish haqini oshirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Negaki, ishlab chiqarish unumdorligini, talab va taklif ko'lamlarini oshirish ob'ektiv iqtisodiy reallik bo'lib, bu qonuniyat bilan hisoblashmasdan bo'lmaydi. Qolaversa, ishchi va xizmatchilar oylik maoshining oshirilishini talab qilib ish tashlashlari ehtimoli mavjud. Bu bir maromda ishlab turgan tizimlarni izdan chiqarishi aniq. Ishchilarning talabini qondirish uchun ish beruvchilar keskin choralar ko'rishga majbur bo'ladi. Oqibatda ish joylarining,

olinadigan sof foydaning ko'lamini qisqaradi, ish kuchining narxi hamda ishsizlik salmog'i keskin oshadi.

**Xulosa va takliflar:** Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishning rivojlanishi sharoitida davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qarzdorligini undirish ma'murchiligidagi har bir yo'nalishda soliqlarni majburiy undirish uchun nazorat ishlarini, ya'ni mas'ul bo'lgan tashkilotlarga ayniqsa xizmat ko'rsatayotgan bank muassasalari javobgarligini kuchaytirish ya'ni barcha bosqichlarni elektron shaklga o'tkazish, mavjudlarini yanada takomillashtirish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.